

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

“Tikuv buyumlarini konstruksiyalash
va texnologiyasi” kafedra mudiri
dots. M.A.Mansurova _____

«Tasdiqlayman»
YEST va D fakulteti dekani
dots. R.D.Akbarov _____
« 18» fevral 2019 y.

DIPLOM LOYIHA ISHIGA TOPSHIRIQ

Talaba: Alieva Xulkar Raxmatilla qizi

Ta’lim yo‘nalishi: Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv buyumlari)

Fakultet: Yengil sanoat texnologiyasi va dizayn

Diplom loyiha ishi mavzusi: Ayollar trenchini texnologik jarayonini ishlab chiqish

Topshiriq _____

(kafedra, korxonada, ITI, DNI, tashabbusi bilan)

Rahbar: kat.o‘q. Isayeva D.X.

1. Diplom loyiha ishining qisqacha mazmuni. Ayollar trenchi uchun yangi dizayn loyihagini yaratish, konstruksiyasini qurish va modellashtirish, tikuv sexi texnologik jarayonini loyihalash, ekologik vazifasini yechish, texnika iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash

2. Diplom loyiha ishining tarkibiy qismlari.

2.1. Asosiy qism (texnologik, konstruktorlik, tadqiqot va boshqa) Muxandis-konstruktorlik qismida loyihalanganayotgan model material paketini konfeksionlash, konstruksiyalash usulini asoslab tanlash, dastlabki ma’lumotlarni tanlash, konstruktiv modellashtirish, ishchi xujjatlarni tuzish, material sarfini hisoblash.

Texnologik qismda asbob-uskuna va tikish usullarini tanlash, texnologik ketma ketlikni tuzish, oqim turi va parametrlarini tanlab texnologik sxemani tuzish, texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash, sex planini tuzish.

Maslahatchi: ass. Aripjanova M.A.

2.2. Qo‘shimcha qismlar:

Tikuv sexlarida mehnatni muhofaza qilish va ekologik masalalarni o‘rganish

Tikuv sexining biznes-rejasini ishlab chiqish.

2.3. Hisob-tushuntirish matni tarkibi va qisqa mazmuni:

Hisob tushuntirish matni badiiy-muxandislik, muxandis-konstruktorlik, texnologik, ekologiya va iqtisodiy qismlarini nazariy ma’lumotlari, hisoblash metodikasi va hisobi, chizmalar va rasmlardan tashkil topadi.

2.4. Diplom loyiha ishi grafik qismining tarkibi va qisqa mazmuni

(bajariladigan grafik materialning hajmi):

Diplom loyihasi grafik qismi asosiy model AK va MK chizmasi, asosiy model andazalari, asosiy model texnik rasmi va asosiy model qir-qimlari, moslik, tartib grafiklari, sex plani, texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

3. Diplom loyiha ishi himoyasi

4. Topshiriq berilgan sana

5. Kafedra mudiri

6. Rahbar

7. Bajaruvchi

18.02.2019 yil

dots. Mansurova M.A.

kat. o‘q. Isayeva D.X.

Alieva X.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1. Badiiy-muhandislik qismi	
1.1. Texnik topqshiriqni loyihalash va bajarish uchun boshlang'ich ma'lumotlarni ishlab chiqish.....	5
1.2. Zamonaviy moda yo'nalishi tahlili.....	7
1.3. Eskiz loyihani ishlab chiqish.....	
2. Muhandis konstruktorlik qismi	
2.1. Loyihalananayotgan obyekt material paketini konfeksionlash.....	12
2.2. Asosiy konstruktsiya qurish usulini asoslab tanlash.....	13
2.3. AK chizmasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar.....	14
2.4. AK qurish va hisobi.....	16
2.5. Loyiha obyektini konstruktiv modellash.....	17
2.6. Ishchi hujjatlarni tuzish.....	18
2.6.1 Yangi model andozalarini tayyorlash prinsiplari.....	18
2.6.2 Loyihalananayotgan modelga gazlama sarflash normasini hisobi.....	23
3. Texnologik qism	
3.1 Tikuv buyumlarni tayyorlash jarayonini texnologik bog'liqligini tahlili.....	25
3.1.1 Asbob-uskuna va tikish usullarini tanlash va asoslash.....	25
3.1.2 Buyum tikish texnologik tartibini tuzish.....	34
3.2 Ishlab chiqarish oqimini va sexni loyihalash.....	35
3.2.1 Ishlab chiqarish oqimini loyihalash masalasini tuzish. Ishlab chiqarish oqimi turini va transport vositalarini tanlash.....	35
3.2.2 Ishlab chiqarish oqimini tashkiliy texnik yechimini va dastlabki ma'lumotlarni shakllantirish.....	37
3.2.3 Ishlab chiqarish oqimining tashkiliy-texnologik sxemasini tahlil qilish.....	49
3.2.4 Ishlab chiqarish oqimini tashkiliy-texnik yechimini texnik-iqtisodiy tahlili.....	54
3.2.5 Ishlab chiqarish oqimida ish o'rinlarini joylashtirish va sex planini tuzish..	53
3.2.6 Qo'shimcha assortimentni hisoblash.....	54
4. Ekologik qism.....	55
5. Iqtisodiy qism.....	62
Xulosa.....	72
Foydalanilgan adabiyotlar.....	7

Kirish

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlab olinishi bugungi kunda yuqori sifatli tikuv buyumlarini loyihalashtirib ularni ishlab chiqarishning zamonaviy islohotlariga ko'ra yo'naltirib mutaxassislikka oid murakkab masalalarni yechishga qodir. Qonunlarni mukammal bilish muhim ahamiyatga ega. Shunga binoan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash muhim vazifadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “ O'zbekistonda to'qimachilik va yengil sanoat rivojlanishi uchun katta miqdorda xomashyo resurslari mavjud, ushbu resurslardan mos ravishda foydalanib mahsulot ishlab chiqarish, avvalo ichki bozorimizni to'ldirib, so'ngra sifatli va raqobatbardosh mahsulot, buyumlar bilan jahon bozoriga chiqish, respublikamiz iqtisodiyotining yetakchi yo'nalishlaridan biridir”.

Ishlab chiqarishni tashkiliy-texnik jihatdan tayyorlashning dastlabki bosqichi kiyimni modelga moslab yaratish hisoblanadi. Sanoat korxonalari oldida turgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: uskunalarni zamonaviylashtirish, yuqori sifatli, chiroyli kiyim assortimentini ko'paytirish, tezda moslanuvchi yangi oqim liniyalarini qurishni, tikuvchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdir.

Respublikamizda keng turdagi sifatli to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilishni tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliyashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz tikuvchilik sanoatining jadal rivojlanishini ta'minlash, yuqori sifatli va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yirik xorijiy bozorlarga yanada ilgari surish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasida** belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida tikuvchilik sanoatini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilab chiqilgan.

– Tikuvchilik sanoatining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tikuvchilik mahsulotlarining, eng avvalo, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh tikuvchilik mahsulotlarini yuqori texnologik ishlab chiqarishga qayta yo'naltirish orqali hajm va sifatni oshirish;

–Tarmoq ishlab chiqarish salohiyatini, birinchi galda uning texnologik yo'nalishini rivojlantirish;

– Tarmoqqa tikuvchilik mahsulotlari mahalliy va xorijiy bozorlarining holati hamda rivojlanish tendensiyalari haqidagi axborotlar olishni ta'minlash imkonini beruvchi ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;

–Tikuvchilik sanoatining boshqaruv tizimini ilg'or menejment texnologiyalari, tarmoq korxonalariga har tomonlama ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash;

–Yengil sanoat mahsulotlarining mahalliy va jahon bozorlarida katta talabga ega bo'lgan turlarining texnik darajasi va sifatini oshirish;

–Tarmoqda hom ashyo elektr energiya va mehnat sarf-harajatlarini kamaytiruvchi texnologik yo'nalish va jarayonini ishlab chiqarish va amaliyotda qo'llash;

–Sotuv hajmini oshirish va import o'rnini bosish maqsadida yuqori texnologik mahsulotni sotuv bozorida ilgari surish mehanizimini oshirish;

–Bulardan ko'zlangan maqsad istiqbolda mamlakat to'qimachilik va yengil sanoat tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishning muhim yo'nalishi asosiy fondlarni inovatsion yangilash va mahsulot sifatini yangilashdan iborat.

Bugungi kunda, jahon moliyaviy inqirozi sharoitida O'zbekiston yengil sanoati oldida liboslar sifatini oshirish, tannarxini kamaytirish, loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirishdek muhim vazifa turibdi. Bu esa, umummuhandislik fanlari bilan bir qatorda, tikuv buyumlari konstruksiyasi, texnologiyasi va tikuv jarayonlarini loyihalash bo'yicha bilim olishni ham talab etadi.

O'zbekistonda xalqni yuqori sifatli, turli assortimentdagi mavsumbop bichimi, estetik ko'rinishi jihatidan aholi talablariga mos keladigan kiyimlar bilan ta'minlash, jahon bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan sifatli mahsulot ishlab chiqarishdir.

Diplom loyihasining maqsadi maxsus fanlar: chizma geometriya va muhandislik grafikasi, rasm va kostyum grafikasi, amaliy antropologiya va biomexanika, kostyum kompozitsiyasi va tarixi, menejment va marketing asoslari, tikuv buyumlari konstruksiyasi va texnologiyasi, tikuv buyumlarini ishlab chiqarish jihozlari, texnologik jarayonlarni loyihalash kabi fanlarni o'zlashtirish jarayonida olgan bilimlarni umumlashtirish, chuqurlashtirish va mustaxkamlashdan iborat.

Diplom loyihasining mavzusi: Ayollar trenchini ishlab chiqaradigan texnologik jarayonni loyihalash.

Diplom loyihasida quydagi qismlar yoritildi.

1. Badiiy-muhandislik qismi
2. Muhandislik-konstruktorlik qismi
3. Texnologik qism
4. Ekologik qism
5. Iqtisodiy qism

1. Badiiy-muhandislik qismi

Loyihalananayotgan obektning dizayn shakli loyihalananayotgan obektga qo'yiladigan talablar, obekt vazifasidan qat'iy nazar ishlab chiqish uchun dastlabki ma'lumotlar, obektning konstruktiv-dekorativ yechimi va stilistikasiga va paket materialiga bo'lgan talablarni o'z ichiga oladi.

1.1. Loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar va texnik topshiriqning tuzilishini ishlab chiqish

Texnik topshiriq – kiyimning asosiy vazifasi, texnik tavsifi, sifat ko'rsatkichlari, ishlab chiqilgan buyumga qo'yiladigan texnik-iqtisodiy talablar, konstruktorlik hujjatlarining bosqichlari, ularning tarkibi va kiyimga qo'yiladigan maxsus talablarni belgilovchi konstruktorlik hujjati.

Loyihalananayotgan obyekt nomi: *Ayollar trenchi*

Loyihalananayotgan obyekt vazifasi: *Kundalik*

Tananing antropometrik xarakteristikasi: *Bo'y - T1 - 168*

Razmer - O2 3 -88

Paket material nomi: *kostyumbop gazlama*

Loyihalananayotgan buyumga qo'yiladigan talablar:

Kiyim sifatini baholash uchun iste'molga oid sifat ko'rsatkichlari va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga bo'linadi.

Iste'molga oid ko'rsatkichlar deb, insonning buyumni iste'mol qilish jarayonidagi muayyan talablarni qondirishiga qaratilgan buyum xossalari tushuniladi. Iste'molga oid ko'rsatkichlarga ijtimoiy, funksional, estetik, ergonomik, ekspluatatsion ko'rsatkichlari kiradi.

1. Ergonomik talab jumlasiga buyumni eksplatasiya qilish davrida inson uchun qulay sharoit yaratuvchi, uni toliqtirmaydigan sharoit tug'diruvchi faktorlar kiradi. Ya'ni buyumniinsonga moslashganlik darajasini bildiradi. Ergonomika (ergon-mehnat, nomos- qonun) insonni muayyan faoliyat sharoitida o'rganadigan hamda inson, buyum atrofidagi muhitning o'zaro bog'lanish qonuniyatlarini o'rganadigan ilmiy fandır.

2. Estetik talab jumlasiga model konstruksiyasining badiiy butunligi, mukammalligi va zamonaviy moda talabiga javob berishi hamda haridorligi kiradi. Estetik xsusiyatga ega bo'lmagan kiyim foydasiz buyumga aylanadi, chunki u o'z maqsadli funksiyasini – insonning estetik talabini qondiradigan o'ziga xos xususiyatni bajara olmaydi. Estetik talab kiyimni shaxsiy iste'mol predmeti sifatida baholashda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Estetik ehtiyoj, go'zallik qonunlariga ko'ra, insonning go'zallikka va ijodga bo'lgan talablarini bildiradi.

3. Funksional talab da model aniq bir vazifaga mo'ljallangan, iste'molchining antropometrik o'lchamlari guruhiga mos bo'lishi kerak. Ayni buyumning vazifasi modelga, uning konstruksiyasiga va materiallariga qo'yiladigan talablarni shakllantira oladi. Odamlarni yoshi, o'lchamlari, to'lalig guruhlarida ichida tashqi ko'rinishi va psixologik tuzilishida keskin farqlanish mavjudligi bois bir xil vazifali kiyim ham ushbu guruhlariga mansub bo'lgan holda loyihalanaadi.

4. Ekspluatatsion talab buyumni foydalanishga yaroqli holini uzoq muddat davomida saqlay olish qobiliyati. Bunda model o'z shaklini saqlovchanligi, materialning mustahkamligi, biriktiruvchi choklarning uzilishga chidamliligi kabi talablarga javob berishi kerak. Tikuv buyumlarining ishonchlilik xususiyati iste'mol jarayonida ma'naviy yoki fizikaviy yaroqsizlikka kelgan vaqt bilan o'lchanadi. Eksplyuatatsiya davrida kiyimning ishonchlilik ko'rsatkichi detallarning shakl saqlovchanligi, choklarning pishiqligi bilan xarakterlanadi.

5. Ijtimoiy talab buyumning ishlab chiqish va sotishga muvofiqligini bildiradigan ommaviy ehtiyojlarga mosligini harakterlaydi. Mahsulot sifatini ta'minlashda ijtimoiy omillar roli ilmiy-texnik taraqqiyot va moddiy faravonlik o'sgan sari oshaveradi. Shu bois iqtisodiy- ijtimoiy talablar kiyim loyihalashdan avval texnik topshiriq tuzish bosqichida hisobga olinadi.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar konstruksiyaning texnik jixatdan mukammallikdarajasini, ishlab chiqarishva iste'molchi harajatlarinihisobga olgan holda kiyimni loyihalash va texnologikusullarini bildiradi. Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarda standartlash va unifikatsiyalash, konstruksiyaning ishlov berishga qulaylik darajasi va tejamlilik ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Qiz bolalar komplektini yaratayotganda uning texlogik jihatdan ishlov berishga qulayligi hamda choklarining pishiqligini taminlovchi va qayta ishlov berishga qulaylik yaratishda eksplyuatatsion ko'rsatkichlarni ham hisobga olish zarur.

Konstruksiyaning standartlashtirish va unifikatsiyalashtirishga model seriyasining ishlov berishga qulaylik jihatdan yaqinliligi, model seriyasining konstruktiv jihatdan yaqinliligi ko'rstakichlar kiradi.

Konstruksiyaning ishlov berishga qulayligiga eksplyuatatsiya jihatidan ishlov berishga qulayligi, ishlab chiqarish jarayonida ishlov berishga qulayligi ko'rsatkichlari kiradi.

Tejamkorlik ko'rsatkichlariga bir dona maxsulotga sarf xarajatlar darajasi hamda buyum eksplyuatatsiyasiga sarf harajatlar darajasi kiradi. Loyihalanaotkan buyumning tejamkorlik talablarga jovob berishini taminlash maqsadida ko'p mayda detallarga ega bo'lgani model loyihalanganligi qo'l keladi.

1.2. Zamonaviy moda yo'nalishi

2019- yilda modelyer-dizaynerlar ayollar garderoibi uchun nimalarni tavsiya etishmoqda? Yorqin ranglardan (qizil, xantal, kulrang rang, och yashil) keng foydalanilgan, har xil mayda detallar bilan boyitilgan ayollar kiyimlarini misol qilish mumkin.

Pantone tadqiqot institute “tirik korall” rangini 2019-yil ranggi deb e’lon qildi. Pantone vitse-prezidenti Lori Pressmanning so’zlariga ko’ra, rang bu o’ziga xos “til” bo’lib, u madaniyat bilan bevosita bog’liq. Pressman atrof-muhitning insonlar hayotiga ta’siri kuchayib borayotganini “tirik korall” rangi tanlanishiga sabab bo’lganini aytdi.

Bahor-kuz mavsumida yomg’irlar ko’proq nam va suv o’tkazmaydigan matolarni tanlash tavsiya etiladi. Yildan yilga moda dizaynerlari bizni har qanday lazzat uchun mumtoz va o’ziga xos modellar bilan ta’minlaydi.

Hozirgi kunda moda olamida bahor-kuz mavsumlarida yengil-yupqa va mustahkam matolardan kiyiladigan, turli xil detallar ya’ni mayda detallar (yelka pagoni, belbog’, manjet va hokazo)lar bilan bezatilgan trenchlar urfga kirmoqda.

Ayollar trenchi relief choklari, turli xil cho’ntaklari, har xil taqilma tugmalari va zamonaviy ko’rinishi bilan har doim modaga kiradi.

Silueti belidan toraygan, etagi bo’ksadan kengaygan old yoki ort bo’laklari koketkali trenchlar urf bo’lmoqda.

Ranglari esa bahor va kuz mavsumiga mo’ljallangan ranglardan foydalanilmoda.

Qizil rang. Ranglar institutining talqini bo’yicha Pantone Cherry Tomato-yilning eng urfdagi ranglaridan biridir. Qizil rang bilan mos keladigan variantlar soni benihoya ko’p, biroq ortiqcha yorug’lik pafosini lakonik shakllar va tushunarli siyratlar bilan mo’tadillashtirgan ma’qul.

Yashil rang. Yangi mavsumda yashil rang uchun “ortiqcha hech narsa” tamoyili hech ham mos kelmaydi Monoxromlik, detallarining ko’pligi va bezaklarga qaramasdan bu rang . bahor-kuz mavsumining eng yorqin trendlari reytingida eng yuqori qatorlariga chiqishiga to’sqinlik qilmaydi.

Chindan ham ranglarning yo’qligi ba’zan har qanday ranglardan afzalroq.

Kul rang. Yomg’ir va bulutli osmon ranggi ham total-look pozitsiyasida , ham boshqa ranglar uchun asos sifatida a’lo yechim sanaladi.

Kulrangning barcha t uslari barcha trench, plash va kardiganlar juda mos tushadi.

Bu mavsumda sariq (xantal) ranggi turli darajadalardagi garderoblarga kirib bormoqda. Qo’rqmasdan boshdan oyoq xantal rangiga burkaning yoki turli yorqinlik t uslari darajasidagi kiyimlar bilan uni sinab ko’ring.

Eskiz loyihani ishlab chiqish.

TAKLIF MODEL №1

Bahor-kuz mavsumiga mo'ljallangan ayollar trenchi.

Materiali kostyumbop gazlama.

Silueti yarim yopishgan. Old bo'lak relief chokli. Relief chok davomida listochkali cho'ntak joylashgan. Old bo'lak ikki bortli.

Ort bo'lak relief hamda o'rta chokli.

Yenggi o'tqazma, ikki chokli. Yeng uchiga manjet bilan ishlov berilgan.

Yoqasi ko'tarma, qaytarma yoqa.

Trench yelka qismida yelka pagoni joylashgan.

Trench bel qismida ikki yonida kamar tutgich bor va ulardan taqilma belbog' o'tkazilgan.

Trench ikki bortli va unda 4 ta tugma va izma joylashgan. Yelka pagoniga ham 1tadan tugma qadalgan.

Trench astarli, etagi yopiq, uzunligi tizzadan yuqorida.

Bu model 42-46 razmerlar, 160-158 bo'ylar bo'yicha tavsiya etiladi.



TAKLIF MODEL №2

Bahor-kuz mavsumiga mo'ljallangan ayollar trenchi.

Materiali plashbop gazlama.

Silueti yarim yopishgan. Old bo'lak yeng o'mizidan tushgan relef chokli.

Relief chok davomida listochkali cho'ntak joylashgan. Old bo'lak ikki bortli.

Ort bo'lak relef hamda o'rta chokli.

Yenggi o'tqazma, ikki chokli. Yeng uchiga xlyastik bilan ishlov berilgan.

Yoqasi ko'tarma, qaytarma yoqa.

Trench bel qismi uzun belbog' bilan bog'langan.

Trench ikki bortli va unda 6 ta, 3 ta tugma va izma joylashgan.

Trench astarli, etagi yopiq, uzunligi tizzadan yuqorida.

Bu model 42-46 razmerlar, 160-158 bo'ylar bo'yicha tavsiya etiladi.



TAKLIF MODEL №3

Bahor-kuz mavsumiga mo'ljallangan ayollar trenchi.

Materiali trenchbop gazlama.

Silueti to'g'ri tushgan. Old bo'lak koketkali.

Old bolakda qoplama cho'ntak joylashgan. Old bo'lak ikki bortli.

Ort bo'lak o'rta chokli.

Yenggi nolli reglan yeng.

Yoqasi kapyushonli.

Trench ikki bortli va unda 8 ta tugma va 4ta izma joylashgan.

Trench astarli, etagi yopiq, uzunligi tizzadan yuqorida.

Bu model 42-46 razmerlar, 160-158 bo'ylar bo'yicha tavsiya etiladi.



1.2-jadval . Taklif modellarning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha baholanishi

№	Guruhli va yakka sifat ko'rsatkichlarning nomi	SK belgilanishi	SK ahamiyatliligi			
			TM-1	TM-2	TM-3	etalon
I	Iste'molchi SK	K ₁	66,9	65,6	65	67,5
	Ijtimoiy	K ₁₁	9,8	9,4	9,3	10
	Funksional	K ₂₁	11,3	11	11	11,5
	Estetik	K ₃₁	17,1	17	16,9	17,5
	Ergonomik	K ₄₁	15,5	15,2	15	16
	Ekspluatatsion	K ₅₁	13,2	13	12,8	13,5
II	Texnik-iqtisodiy SK	K ₂	31,1	30,4	30	32,5
	Standartlash va unifikatsiyalash	K ₁₂	10,5	10,2	10	11
	Konstruktsiyaning texnologikligi	K ₂₂	11	10,8	10,7	11,5
	Iqtisodiy	K ₃₂	9,6	9,4	9,3	10,0
	Jami		98	96	95	100

Taklif modellarni sifat ko'rsatkichlari taxlil qilinib, iste'molchi sifat ko'rsatkichlari va texnik iqtisodiy sifat ko'rsatkichlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichni ko'rsatgan TM-1 tanlandi. [9]

2.Muhandis-konstruktorlik qismi

2.1.Loyihalanayotgan obyekt paketini konfeksionlash

O'zbekiston iqlim zonasining tavsifi

Yoz kunlari odam organizmiga yuqori harorat ta'sir etadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo respublikalarida ushbu muammo jiddiy ahamiyatga ega. Keng miqyosda o'tkazilgan ilmiy izlanishlar Markaziy Osiyo hududiga taaluqli iqlimiy, gidrologik va ekologik muammolarga bag'ishlangan. Hozirgi vaqtga qadar mazkur territoriyaga oid iqlimiy rayonlashtirishning variantlari ishlangan bioiqlimiy kartalar komplekti tuzilgan, turli iqlimiy va bioiqlimiy ta'riflar, atlas va ma'lumotnomalar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Yevrosiyo kontinentining markaziy qismida shimoliy kenglikning o'ttiz yettinchi – qirq beshinchi graduslari va sharqiy uzunliklarning ellik oltinchi va yetmish uchinchi graduslari orasida joylashgan; uning umumiy maydoni 447,4 ming km² ga teng.

O'zbekiston Shimolda va G'arbda Qozog'iston bilan, Janubda – Turkmaniston va Afg'oniston, Sharqda esa Tojikiston va Qirg'iziston bilan chegaradoshdir.

Respublika tengsiz ikki qismga bo'linadi: 78,8 foizi – tekisliklar, qolgan 21,2 foizi – tog'lar va tog'lararo cho'nqirlar.

Respublika hududi Osiyoning quruq zonasiga kiradi. Uning 70 foizdan ko'prog'i iqlimiy o'zgarishlarga moyil sahro va yarim dashtlardan iborat.

Asosiy biriktiruvchi materiallarga tikuvchilik iplari kiradi. Tikuvchilik iplari paxta, zig'ir, ipak, viskoza, kapron, lavsan, propilen tola va ipalridan tayyorlanadi.

Kimyoviy tolalardan olinuvchi tikuvchilik iplari

Kimyoviy kompleks iplar va tolalardan olinuvchi tikuvchilik iplarining turlari yildan-yilga kengaymoqda.

Kimyoviy tolalardan birikkan, shakldor, o'zakli armaturalangan, shtapel tolalaridan olingan, tiniq va suvda eriydigan tikuvchilik iplari ishlab chiqariladi.

Paxta tolali gazlamalar, charm, plyonka qoplamali gazlamalardan tikiladigan buyumlarni tikishda savdo nomeri 50-K deb belgilanadigan kapronbirikkan iplar ishlatiladi. sintetik tolali iplarga nisbatan ularning mustahkamligi, ishqalanishga chidamliligi ancha katta, lekin ular issiqqa chidamaydi. Minutiga 2000-2200 qaviq hosil qilib tikilganda igna teshigiga ishqalanib eriydi va uziladi.

Kostyumbop gazlamalar har xil tolali bo'lishi mumkin. Kostyumbop gazlamalar asosiy materiallarga kiradi va uning turlari ko'payib bormoqda.

Astar uchun ishlatiluvchi gazlamalar yuzasi silliq bo'lgan ipak gazlamalar, yupqa qilib to'qilgan sintetik tolali matolar kiradi.

Furnitura yoki yordamchi materiallarga tugmalar, ilgaklar, halqalar, va hokazolarni kiritish mumkin.

2.1.-jadval Tavsiya qilingan materiallar tavsifi

№	Material nomi	Tola tarkibi		10 smda zichligi		O' rilishi	Kengligi,sm	Og' irligi,gr/m2
		tanda	arqoq	tanda	arqoq			
1.	Kostyumbop gazlama	Paxta	72% paxta, 28% viskoz a	788	496	sarja	180	280
2.	Astarlik gazlama	Lavsan	25% kapron, viskoza	826	780	sarja	150	280

2.2. Asosiy konstruksiya qurish usulini asoslab tanlash

Kiyim konstruksiyalashdan asosiy maqsad – yassi materialdan fazoviy shaklni yaratish, yoki bu masalaning teskari yechimi – eskizda, model namunasida berilgan kiyim detallarining yoyilmasini qurishdir.

Buyumning chizmasi figura o'lchamlari va ularga muvofiq qo'shimchalar asosida eskizda berilgan modelning konstruksiyasi qurilishi bilan karakterlanadi.

So'nggi vaqtlarda tikuvchilik sohasida har-xil milliy konstruksiyalash uslublari keng tarqalmoqda. Nemis "M.Myuller va o'gli" fransuz "Lin Jak", va Yevropa bir qator davlatlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan YEMKO SEF uslublari ishlatilib kelmoqda. [6]

Shu uslublardan o'rin olgan "Myuller va Sin" uslubi bugungi kunda tikuvchilik sanoat sohasida ishlab kelayotgan mutaxassislar e'tiborini o'ziga jalb etmoqda. Qancha odam qomati, ishlatiladigan o'lchamlari to'g'risida ma'lumot aniq bo'lsa, shuncha konstruksiya chizmalari aniq va sifatli bo'ladi.

Ingliz uslubida 20 ta odam tanasini harakterlovchi o'lchamlar ishlatiladi. Bu uslubning yana bir boshqa uslublardan farqi har bir so'nggi topilgan nuqta belgilanishi tartib raqmnining oshib borishi bilan ifodalanadi. Bunda nuqtalar topilish ketma-ketligi ma'lum bo'ladi.

2.3. Asosiy konstruksiya chizmasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar

AK chizmasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar sifatida o'lchamlar va qo'shimchalar olinadi

2.2.-jadval Tipaviy figuraning o'lchamlari

№	O'lchamlar nomi	Shartli belgisi	Qiymati, sm
1	2	3	4
1.	Bo'y	P	168
2.	Ko'krak aylanasi	O_{g3}	88
3.	Bel aylanasi	O_t	70
4.	Bo'ksa aylanasi	O_b	94
5.	Ort bo'lak kengligi	Sh_s	33
6.	Yelka qiyamasi kengligi	Sh_p	12.2
7.	Yelka qiyamasi balandligi	V_{prz}	19
8.	Kurak chiqig'i hisobi bilan ort belgacha uzunlik	D_{ts}	41.1
9.	Bo'yin asosi nuqtasidan old belgacha uzunlik	D_{tb}	14.4
10.	Yeng uzunligi	D_r	63
11.	Bo'ksa balandligi	V_b	60.5
12.	Buyum uzunligi	D_i	90
13.	Orqa bo'yin kengligi	$Sh_{sh.z}$	6.7

14.	Ko'krak balandligi	V_g II	26.6
15.	Bo'yin nuqtasidan old belgacha uzunlik	D_{tp} II	44.9
16.	Orqa o'miz kengligi	Sh_{pr}	9.5
17.	Ko'krak kengligi	Sh_g	18
18.	O'miz balandligi	V_{pr}	41.6
19.	O'miz uzunligi	D_{pr}	49.3
20.	Bilak aylanasi	Sh_{rn}	24
21.	Yeng o'mizi balandligi	V_{ok}	17.87

2.3.-jadval Asos konstruksiya qurish uchun qo'shimchalar

No	Qo'shimchalar nomi	Shartli belgisi	Qiymati, sm
1	2	3	4
1.	Yelka qiyamasi balandligi qo'shimchasi	P_{vprz}	$2.5 \div 3.5$
2.	Orqa kengligi qo'shimchasi	P_{shc}	$1 \div 1.5$
3.	Bo'ksa aylanasi qo'shimchasi	P_{shpr}	$3 \div 4$
4.	Bel aylanasi qo'shimchasi	P_{shg}	$1.5 \div 2$

2.4. Asos konstruksiyani qurish va hisobi

2.4.-jadval. Loyihalanayotgan model asos konstruksiyasi hisobi.


No	Konstruksiya bo'lagi belgilanishi	Hisobi	Qiymati, sm
1	2	3	4
Ayollar trenchini asos konstruksiyasi hisobi			
1.	1-2	$V_{prz} + 3.5$	23

2.	1-3	D_{ts}	41.1
3.	1-4	V_b	60.5
5.	3-6	–	2
6.	4-7	–	2
7.	9-10	$1/2 Sh_s + 1.5$	18.5
9.	10-11	$2/3 SH_{pr}$	8.6
10.	11-11a	$6 \div 10$	7.3
11.	11a-12	$1/3 Sh_{pr}$	4.3
12.	12-13	$Sh_g + 2$	18
13.	13-14	$1/10 O_g + 1$	9.8
14.	13-11a 11-9	$22.5 + 27.5$	50
15.	1-15	$Sh_{shz} + 0.5$	7
16.	15-16	–	2
17.	17-18	–	1
18.	16-19	Sh_{pr}	13.5
19.	12-23	$/10-18/-2$	20
20.	24-25	$D_{tp} II$	44.9
21.	25-26	$V_g II$	26.6
22.	23-27	$1/10 S_g$	4.4
23.	27-28	$/16-19/-1$	12.5
24.	29-30	$Sh_{shz} + 0.5$	7
25.	29-31	$Sh_{shz} + 1.5$	8
Yeng			
26.	1-2	V_{ok}	17.87
27.	1-3	D_r	63

28.	3-4	–	2
29.	4-5	$1/2/2-4/+1$	22.5
30.	2- k _p	$1/4Sh_{pr}$	3.4
31.	k _p -6	$1/2 D_{pr} -1.5$	24
32.	1-9	$1/2/1-6/+1$	10.05
33.	6-12	$1/4Sh_{pr} +0.5$	3.87
34.	5-14	$1\div 1.5$	1
35.	8-15	–	0.5
36.	4-16	$1/2Sh_m$	12
37.	12-17	$4\div 5$	5

2.5. Loyiha obyektini konstruktiv modellash

1. Model uzunligi belgilandi;
2. Material xususiyatini hisobga olgan holda yon chiziq belgilandi;
3. Yeng o'mizi tenglashtirildi;
4. Ort bo'lak yelka qirqim 1 sm ga ko'tarildi;
5. Old va ort bo'lak yoqa o'miz model eskiziga muvofiq shakli belgilandi
5. Yelka kengligi belgilandi;
6. Old bo'lakda vitochka modelga muvofiq o'ngga ko'chirildi va yelkadan etakkacha relef chizig'i tushirildi;
- 7.Ort bo'lak yelka vitochkadan etakkacha relef chizig'i tushirildi;
- 8.Old va ort bo'lakda bel vitochkalari belgilandi;
- 9.Ort bo'lak etak qismi modelga mos kengaytirildi;
- 10.Old bo'lakda tugma o'rni uchun 8sm qo'shildi;
11. Old yon bo'lakda cho'ntak o'rni belgilandi; [7





Sihertil belgileri:

————— *AK çizikleri*

————— *MK çizikleri*

					KL.001.19			
					AYRILAR FRENCH	Adı	Yanı	Yanlış
İşlet	Şirket	Adı	İşlet	AK ve MK				İ
İşlet	Şirket	Adı	İşlet	100-00-04	İşlet	Şirket		
İşlet	Şirket	Adı	İşlet	Kostyumbop pAZCASA	TTTACI TERT Adı			
İşlet	Şirket	Adı	İşlet		20-22 paraf			



Shartli belgilar:

————— *AK chiziqlari*

————— *MK chiziqlari*

Yang va yoqa konstruksiyasi

sh

2.6. Ishchi hujjatlarni tuzish

2.6.1. Yangi model andozalarini tayyorlash prinsiplari

Andozalarni chizmasi buyumni tuzuvchi barcha detallarga konstruktorlik hujjatlarning yagona sistemasi talablariga muvofiq tayyorlanadi.

Andozalar chizmasi quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

- Konstruksiya chizmasi batafsil tekshiriladi;
- Chizmaga gazlamaning kirishuvchanligiga bog'liq aniqliklar kiritiladi;
- Detallar nusxasi boshqa qog'ozga tushiriladi;
- Asosiy detallar andozalarining ishchi chizmalari quriladi;
- Ishchi chizmada foydalanishga mo'ljallangan andzalar tayyorlanadi

Konstruktorlik hujjati yagona sistema talablariga ko'ra detallar chizmasida texnik talablarga ko'ra javob bera oladigan, tanda ipining yo'nalishi va tanda ipining me'yorlar bo'yicha ruhsat etilgan og'ishlar va nazorat kertiklari belgilanadi. Kiyim konstruksiyasi bo'yicha asosiy detallar andozalari tayyorlanadi.

Asosiy andozalar – konstruksiyasidan chiqadigan detal andozalari hisoblanadi.

Hosila andozalar – asosiy detallar andozalarining chizmasidan tayyorlanadigan detal andozalariga aytiladi. Hosila andozalar yordamida tikuv buyumlari konstruktiv, dekorativ, elementlar bilan bezatiladi. Qirqimlqrga muayyan ishlov beriladi. Detallar konturlari aniqlanadi. Ular buyum shaklining barqarorligini ta'minlaydi. Shu bois hosila andozalarining o'lchamlari va shakli bilan bog'liq holda quriladi.

Hosila andozalar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- Asosiy andozalardan bichiladigan hosila andozalar;
- Astar detallarining andozalari;
- Qotirma detallarining andozalari.

Orginal andozalar – ishchi chizmalarga aynan muvofiq keladi. Ular bazis razmga to'g'ri keladi. Bazis razmerlar guruhlar bo'yicha aniqlanadi.

Etalon andozalar – orginal andozalar asosida gradatsiya orqali qolgan razmerlarga tayyorlanadi va eksperimental sehida saqlanib ishchi andozalarni nazorat qilishda ishlatiladi.

Ishchi andozalar – etalon andozalar asosida ishlab chiqiladi va bevosita ishlab chiqarish jarayonida, joylashma qilishda, bichiqlarni qirqishda va detallar konturini aniqlashda ishlatiladi.

2.5. jadval. Andozlardagi chok haqlari

№	Detal va qirqimlar nomi	Chok haqi nomi va qiymati,sm						Izoh
		Birikirma chok	Mag' iz chok	Buklash-qayirishga	Qirqishga	Kirishtirish va ishlov berishea	Bezak chok	
1	2	3	4	5	6	7	8	
Ayollar trenchi								
1.	Old bo'lak yoqa o'mizi relef qirqim yelka qirqimi yeng o'mizi yon qirqim etak qirqim bort qirqim	0,7 1,0 1,0 1,0 1,0 1,0		4,0				
3.	Yeng yeng qiyalamasi old qirqim tirsak qirqim yeng uchi qirqimi	1,0 1,0 1,0 1,0						
4.	Yoqa qaytarmasi yoqa o'mizi yon qirqim yoqa uchi	0,7 1,0 1,0						
4.	Yoqa ko'tarmasi yoqa o'mizi yon qirqim yoqa uchi	0,7 1,0 1,0						

5.	Manjet yeng uchi qirqimi yon qirqim manjet uchi	1,0 0,7							buklov
6.	Ort bo'yin mag'iz Yoqa o'mizi yon qirqim pastki qirqim	0.7 1,0 1,0							
7.	Belbog' yuqori qirqim yon qirqim ichki qirqim pastki qirqim	0.7 0.7 0.7							buklov
8.	listochka pastki qirqim yon qirqim yuqori qirqim	0.7 0.5							buklov
9.	Yelka pagoni yuqori qirqim yon qirqim pastki qirqim	0.7 0.7 0.7							
10.	Adip yoqa o'mizi yelka qirqim bort qirqim ichki qirqim pastki qirqim	0.7 1,0 0.7 1,0 2,0							

2.6. jadval. Detallar spetsifikatsiyasi

№	Detallar nomi	Detal kodining belgisi	Detallar soni		Izoh
			andozada	bichiqda	
1	2	3	4	5	6
Ayollar trenchi					
1.	Old bo'lak	01	1	2	–
2.	Old yon bo'lak	02	1	2	–
3.	Ort bo'lak	03	1	2	–
4.	Ort yon bo'lak	04	1	2	–

5.	Ustki yeng	05	1	2	–
6.	Ostki yeng	06	1	2	–
7.	Yoqa qaytarmasi	07	1	1	–
8.	Yoqa ko'tarmasi	08	1	1	–
9.	Adip	09	1	2	–
10.	Belbog'	10	1	1	buklov
11.	Mag'iz	11	1	1	–
12.	Manjet	12	1	2	buklov
13.	Listochka	13	1	2	buklov
14.	Yelka pagoni	14	1	2	–
15.	Ko'rinma	15	1	2	–
16.	Kamar tutgich	16	1	2	buklov

2.7. jadval. Andozalarda nazorat kertiklar qo'yish joylarining ro'yhati

№	Detallar va qirqimlar nomi	Kertiklar joylanishi
1	2	3
Ayollar trenchi		
1.	Old bo'lak – yon qirqim	ko'krak chizig'ida – bel chiziqda – bo'ksa chiziqda
2.	Old yon bo'lak – yon qirqim	– ko'krak chizig'ida – bel chiziqda – bo'ksa chiziqda
3.	Ort bo'lak – yon qirqim	– ko'krak chizig'ida – bel chiziqda – bo'ksa chiziqda
4.	Ort yon bo'lak – yon qirqim	– ko'krak chizig'ida – bel chiziqda – bo'ksa chiziqda
5.	Ustki yeng – yeng qiyalamasi – yon qirqim	– yelka nuqtasida – tirsak chizig'ida
6.	Ostki yeng – yeng qiyalamasi – yon qirqim	– qo'ltiq osti nuqtasida – tirsak chizig'ida

7.	Ustki yoqa – yoqa o’ mizi	– o’ rta chiziqda
8.	Ostki yoqa – yoqa o’ mizi	– o’ rta chiziqda
9.	Adip – ichki qirqim	– bel chiziqda – bo’ksa chiziqda
10.	Belbog’ – ichki qirqim	– o’ rta chiziqda
11.	Mag’iz – yuqori qirqim – pastki qirqim	– o’ rta chiziqda

2.8. jadval. Detallarda tanda ipining nominal yo’nalishi va andozalarda ulardan yo’l qo’yilgan og’ishlar

No	Detallar nomi	Tanda ipining yo’nalishi	Tanda ipining yo’l qo’yilgan og’ishi, %
1	2	3	4
Ayollar trenchi			
1.	Old bo’lak	Bort chiziqqa parallel	2%
2.	Old yon bo’lak	Bort chiziqqa parallel	2%
3.	Ort bo’lak	O’ rta chiziqqa parallel	2%
4.	Ort yon bo’lak	O’ rta chiziqqa parallel	2%
5.	Ustki yeng	Yeng uchiga perpendikulyar	3%
6.	Ostki yeng	Yeng uchiga perpendikulyar	3%
7.	Yoqa qaytarmasi	Yoqa o’ miziga parallel	2%
8.	Yoqa Ko’ tarmasi	Yoqa o’ miziga parallel	2%
9.	Adip	Bort chiziqqa parallel	2%
10.	Belbog’	Bo’yi bo’ylab	3%
11.	Mag’iz	Yoqa o’ miziga parallel	2%
12.	Manjet	Manjet pastki qirqimiga perpendikulyar	3%
13.	Listochka	Cho’ntak o’rniga parallel	3%
14.	Yelka pagoni	Yelka qirqimiga parallel	3%
15.	Ko’rinma	Cho’ntak o’rniga parallel	3%
16.	Kamar tutgich	Yon qirqimga parallel	3%


2.6.2. Loyihalananayotgan modelga gazlama sarflash normasining hisobi
2.9. jadval. Yangi model andozalarining maydoni (yuzasi)

Detallar nomi	Detal kodining belgisi	Detallar soni		Detallar maydoni,sm ²
		andozada	bichiqda	
Ayollar trenchi				
Old bo'lak	01	1	2	300.68
Old yon bo'lak	02	1	2	276.29
Ort bo'lak	03	1	2	296.348
Ort yon bo'lak	04	1	2	270.398
Ustki yeng	05	1	2	290.155
Ostki yeng	06	1	2	134.325
Yoqa qaytarmasi	07	1	1	87.564
Yoqa ko'tarmasi	08	1	1	48.428
Adip	09	1	2	208.641
Belbog'	10	1	1	89.26
Mag'iz	11	1	1	41.401
Manjet	12	1	2	89.16
Listochka	13	1	2	19.36
Yelka pagoni	14	1	2	25.525
Ko'rinma	15	1	2	32.227
Kamar tutgich	16	1	2	11.32


2.10. jadval. Yangi model detallari yoyilmasida andozalararo chiqitlarning hisobi

Tarmoq normativlari bo'yicha andozalararo chiqitlar nomi	Andozalararo chiqitlar miqdori,%
Umumiy norma	18
Model xususiyatigaqo'shimcha	-
Yangi model detallari yoyilmasiga oid andozalararo chiqitlarning jamlangan miqdori (B _H)	18

Yoyilmani bajarishdan avval uning dastlabki uzunligi quyidagicha aniqlanadi




				KL.001.19		
				<i>Agollar Francis Andozları</i>	<i>Adet</i>	<i>Stok</i>
					<i>Adet</i>	<i>Stok</i>
<i>Stok</i>	<i>Adet</i>	<i>Stok</i>	<i>Adet</i>	<i>Kesiyimboş geciama</i>		
<i>Stok</i>	<i>Adet</i>	<i>Stok</i>	<i>Adet</i>	<i>77768 7847 Adet 78-81 parçat</i>		
<i>Stok</i>	<i>Adet</i>	<i>Stok</i>	<i>Adet</i>			
<i>Stok</i>	<i>Adet</i>	<i>Stok</i>	<i>Adet</i>			
<i>Stok</i>	<i>Adet</i>	<i>Stok</i>	<i>Adet</i>			
<i>Stok</i>	<i>Adet</i>	<i>Stok</i>	<i>Adet</i>			



№	Adı	Boy	Geni

Asosiy andazalar


144



Çizimci	AYD	Den.	Emre

Asosiy andazalar


2/2



Populu	21/21	31	21/21	

Astar andazalar


1/1



Yakal	Yakal	İnce	Eme

Astar andazalar

1/1



№	№	№	Belgilanishi	Nomi tanishi	№	Izoh
	16	16		Kat'ibna	1	
	15	15		Kamar' falgich	1	
	14	14		Yaska pagoni	2	
	13	13		Lilfochta	2	
	12	12		Sathog'	1	
	11	11		Itanlat	2	
	10	10		Adib	2	
	9	09		Ushki yang	2	
	8	08		Ushki yang	2	
	7	07		Mag'iz	1	
	6	06		Yoga ko'tarmani	2	
	5	05		Yoga qaytarmasi	2	
	4	04		Old yan bo'lat	2	
	3	03		Old bo'lat	2	
	2	02		Old yan bo'lat	2	
	1	01		Old bo'lat	2	
Detallar spetsifikatsiyasi						№
№	№	№	№	№	№	№

$$L_p = \frac{H_{o.np}}{III_p} = \frac{27085}{150} = 180$$

Bu yerda:

$H_{o.np}$ – bo'rlamaning dastlabki normasi;

III_p – gazlamaning eni, sm

Bo'rlamaga sarflanadigan materialning dastlabki normasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$H_{o.np} = \frac{F_n 100}{100 - B_h} = \frac{22210 * 100}{100 - 18} = 27085.4$$

Bu yerda :

F_n – andozalar yuzasi, sm^2 .

B_h – andozalar orasidagi chiqitlar, normativ miqdori.

Yoyilmani bajarishda andazalar yoyilmasiga qo'yiladigan maxsus texnik shartlar va talablarga rioya qilinadi. Xususan yoyilma tuzganda gazlama gullariga, tuklar yo'nalishiga detallarda tanda va arqoq iplarining yo'nalishiga e'tibor beriladi.

Andazalararo chiqitlar foizi quyidagicha hisoblanadi:

$$B_\phi = \frac{(H_{o\phi} - F_n)}{H_{o\phi}} \bullet 100 =$$

$$= \frac{(27000 - 22210)}{27000} \bullet 100\% = 17.7\%$$

Bu yerda :

$H_{o\phi}$ – bo'rlamaning haqiqiy normasi, sm^2

Buyumning nomi- Ayollar trenchi

Razmer, bo'y va to'lalilik guruhi: 168-88-94

Gazlama fakturasi- silliq


Gullarning yo'nalishi- sidirg'a

Yoyilmaning eni- 150sm

To'shama turi- yuzasi pastga

Andazalararo haqiqiy chiqitlar-18 %

Yoyilmaning haqiqiy yuzasi- 27000 sm^2



Yoyilma pasporti

Buyum nomi - Ayollar trenchi

Razmer, rost - 168-88-94

Gazlama fakturasi- silliq

Gullarining yo'nalishi - sildirg'a

Andazalararo chiqiltlar - 17,7%

Yoyilma yuzasi - 22210

				KL.00119			
				Ayollar trenchi	AMS	PKMA	PKMA/CM
				Andazalararo			
Phi litr	Sogir	MS	CM	Joylashmasi			1/10
baland	Adirax II			168-88-94			
Yuldarini	buqur B				1/1	8/10	
masar	buqur A						
				Kestiyumbop gazlama	TTYNB TQKT sh. N.19 guru		
Yuldarini	Masavvaz II						

3. Texnologik bo'lim

3.1. Tikuv buyumlarini ishlab chiqarish texnologik bog'liqligini tahlili

3.1.1. Asbob-uskuna va tikish usullarini tanlash va asoslash

Asbob-uskuna va tikish usullari ishlab chiqarish oqimida tayyorlanadigan mahsulot va ishchilar soniga qarab tanlanadi. Shu bilan birga tikuvchilik sanoatini texnika va texnologiyasini takomillashtirish asosiy yo'nalishlarini, detallarni yelimlab ulash, unumdorligi yuqori bo'lgan asbob-uskunalarni maksimal qo'llashni, sermehnat qo'l ishlarini mehanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishni, yahlit bichilgan detallar va kam operatsiyali texnologiyadan foydalanishni hisobga olinadi.

Buyumni tikishda qo'llaniladigan chok turlari, asbob-uskunalar tavsifi, texnologik ishlov berish tartiblari jadval shaklida ko'rsatiladi. Kiyimning sifati va uni tikish narxi ko'p jihatdan tikish usuliga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham tikish usullari yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarilish va zamonaviy mashina va moslamalardan maksimal foydalanish imkonini beradi.

Bir vaqtda turli kiyim tikiladigan oqimlarini loyihalashda, ayrim uzellari tikish uchun hamma tur kiyimlarni tikishga to'g'ri keladigan yagona usul tanlangani ma'qul. Tikish usullarini tanlashda aslida bir xil usulda tikilishi mumkin bo'lgan bo'rt, yoqa, yeng o'tkazish kabi detal va uzellarini tikish uchun bir xil me'tod tanlashga e'tibor beriladi.

Oqimlarni loyihalashda tikish usulini oqimda ishlab turgan uskunalarni hisobga olib tanlanadi va eskirga mashinalar o'rniga yangilari o'rnatiladi.

Texnologik jihatdan bo'linmaydigan operatsiya tikish jarayonining texnologik jihatdan maydaroq ishlarga ajratilishi mumkin bo'lmagan yaxlit bir elementdir.





Har bir tur kiyimni ishlab chiqish jarayonidagi texnologik jihatdan bo'linmas operatsiyalarning mazmuni va miqdori jarayonining tashkiliy shartlariga bog'liq emas. Kiyim tikish usuli o'zgarishi bilan birga texnologik jihatdan bo'linmaydigan operatsiyalarning soni va mazmuni ham o'zgaradi. Kiyimlarning tikilishi qanchalik murakkab undagi detal va uzellar qanchalik ko'p, mehnat sarfi qanchalik yuqori bo'lsa, texnologik jihatdan bo'linmas operatsiyalar shunchalik ko'p bo'ladi. [10]

Texnologik jihatdan bo'linmas operatsiyalar tanlangan eng ma'qul tikish usullari asosida fabrikaning eksperimental sexida tuziladi.

Bu operatsiyalarni ishlab chiqish, tikish usulini aniqlashda ishlaydigan uskunalarni, mehanizatsiya vositalarni, asboblarni tikishning texnologik rejimini tanlashdan ishning qaysi razryadga oidligi va operatsiyalar bajarilishi uchun vaqtni belgilashdan iborat.

Texnologik jarayonda asbob-uskunalar ketma-ket, parallel va aralash usulda foydalanish mumkin. Bu usullar orqali buyum tikishga ketadigan sarf vaqtni ma'lum darajada qisqartirish mumkin. Bunda tikish usuli va asbob-uskunalarni to'g'ri tanlash va ulardan samarali foydalana bilish lozim.

3.1-jadval. Buyum tikishda qo'llaniladigan chok turlari [11]

№	Chok turi	Konstruksiyasi	Qo'llash jarayoni	Baxyaqator turi	Asbob-uskuna va moslama nomi va belgisi
1	2	3	4	5	6
1	Biriktirma chok		Trench yelka, yon, relef, yoqa va yeng o'mizi, yeng uchi qirqimlari,	Ikki ipli, bir chiziqli mokisimon choki	Universal mashina Typical GC 6850H
2	Ag'darma chok		Trench yoqasi, bort qirqim, belbog', yelka pagoni		
3	Buklama chok		Trench etak qirqimi, belbog' uchi		
4	Bostirma chok		Trench belbog' uchi qirqimi, kamar tutgich, bort va yoqa bo'ylab		

3.2 – jadval. Qotirma qo'yish va namlab-isitib ishlov berish operatsiyalari

№	Operatsiya nomi	Qo'llash jarayoni	Ishlov berish parametrlari			Asbob-uskuna
			Harorat, C ⁰	Bosim, mPa	Operatsiya davomiyligi, s	
1	2	3	4	5	6	7
1	Yorib dazmollash	Relyef choklari, belbog' ichki choki, ort bo'lak o'rta choki, yeng tirsak va old choklari	130 ⁰ -150 ⁰	0,2 – 0,35	8 - 16	EC-289 Rotondi (Italiya)
2	Yotqizib dazmollash	Trench yelka, yon, yoqa va yeng o'mizlari, yeng uchi	130 ⁰ -150 ⁰	0,2 – 0,35	8 - 16	
3	Ziylarni dazmollash	Trench yoqasi va bort qirqim	130 ⁰ -150 ⁰	0,2 – 0,35	8 - 16	
4	Tayyor buyumni dazmollash	Tayyor trenchni dazmollash	130 ⁰ -150 ⁰	0,2 – 0,35	60	

5	Qotirma qo'yish	Trench old va old yon bo'lagi, adip, ostki yoqa, listochka, yeng yuqori qismi, belbog', manjetga	130 ⁰ -150 ⁰	0,5	60	
---	-----------------	--	------------------------------------	-----	----	--

3.3 – jadval. Tikuv mashinalarini texnologik tasnifi [12]

Tabiiy yorug'lik manbai quyoshdir. Sun'iy yorug'lik manbai esa elektr energiyasi bo'lib, u cho'g'lanma va lyuminescent lampalar orqali amalga oshiriladi. Tabiiy yorug'lik binoning yon tomonidan (derazalar), yuqoridan (bunda yorug'lik shedlar yoki zenitfonarlari orqali) va kombinatsiyalashtirilgan ya'ni ham yon tarafdagi derazalar orqali hamda yuqoridan tushgan yorug'lik orqali yoritiladi. Sexlar kunduz kuni odamga yoqimli va foydali bo'lgan tabiiy yorug'lik bilan yoritilishiga alohida ahamiyat berish kerak.

Shovqin

To'xtovsiz, uzoq muddat davom etadigan shovqin ta'siri ostida odamda bosh og'rig'i, bosh aylanishi, tez charchash, quloq kasalliklarini, nerv va yurak-qon tomir kasalliklari kelib chiqadi. Shovqin ta'siri oshsa ish unumdorligi 10-12% pasayadi.

Ish joylarida shovqin darajasini me'yorlashtirish-shovqinning insonga salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan asosiy tadbirlardan biri hisoblanadi.

Shovqinning inson sog'lig'iga ta'siri uning chastotasiga bog'liq bo'lganligi uchun har bir shovqin oktava polosasi uchun alohida ruxsat etilgan darajasi yuqori chastotali shovqinlar uchun qabul qilingan. Masalan, eng kichik tovush bosimi

nazariy va ilmiy ishlar bajariladigan ish joylari uchun belgilangan bo'lib, u o'rtacha 8000Gts deb qabul qilingan.

Zamonaviy texnologiyalardan ishlab chiqarishda keng foydalanish inson salomatligiga zarari kamroq bo'ladi.

Titrash

Ishlab chiqarishda titrashni me'yorlash GOST 12.1.012-92 talablari asosida olib boriladi. Bu standart titrash tezligi va yuzaga kelish manbasi va uning ta'sir qilish o'qlari bo'yicha me'yorlaydi.

To'qimachilik korxonalarida mashina va agregatlar bilan ishlaganda shovqin, titrash vujudga keladi. To'qimachilik korxonalarida ish sharoitlariga mos holda tanlangan maxsus yordamchi materiallar ishlatiladi. Shovqin, titrash va ultra-infratovush qattiq jism, gaz suyuqlik, moddiy jismlarning mexanik tebranishlaridir. Ruxsat etilgan sanitariya talablaridan ortiq bo'lgan ishlab chiqarish shovqinlari, titrash va ultra-infratovushlar muntazam ravishda ta'sir etganda odam organizmi zararlanishi, keyinchalik og'ir kasbiy kasalliklar kelib chiqishi mumkin.

Titrash ta'sirida inson tanasidagi a'zolarining funksional holatlarini ishdan chiqishi, inson markaziy asab, yurak va qon aylanish tizimida hamda harakatlanish a'zolarida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Uning zararli ta'siri charchash, boshning, panja va suyak bug'inlarining og'rishi, haddan tashqari asabiylashish va harakat faoliyatining buzilishi bilan namoyon bo'ladi va ayrim hollarda tebranish kasalligining rivojlanishiga olib keladi. Bu kasallik markaziy asab va yurak aylanish tizimida, shuningdek, harakatlanish a'zolarida qaytarib bo'lmas o'zgarishlar bilan tafsiflanadi. Titrash kasalligining og'irlik darajasi tebranishning ta'sir davri va kuchiga borliq. Bu kasallikni boshlang'ich davrlardagina davolash mumkin. Uning og'ir shakllari, albatta, mehnat qobiliyatining qisman yoki butunlay yo'qolishiga olib keladi. Shovqin va titrashning ish joylarida ruxsat etilgan darajalari «Sanoat korxonalarini loyihalash sanitariya me'yorlari» bilan belgilab berilgan. Shovqin va titrashga qarshi kurash usullari Shovqin va titrashga qarshi kurash mashina, mexanizm va texnologik jarayonlarni loyihalashning dastlabki bosqichlarida boshlanishi kerak.

Ish jarayonlarida titrashni manbaning o'zida kamaytirishning turlari:

- a) mashina va mexanizmlar konstruksiyasini mukammallashtirish.
- b) Texnologik jarayonlarni o'zgartirish (yuklanishini)
- c) Dinamik so'ndirgichlarni qo'llash
- d) Harakatlanuvchi qismlarni aniq markazlashtirish
- e) Mexanizmlarda doimiy ravishda moylash, joriy va kapital ta'mirlash ishlarini o'tkazish.

Mikroiqlim

Yuqori ish unumdorligida erishgan holda sog'lom ish sharoitlariga erishishi uchun sex havosining tezligi va normal mikroiqlim sharoitlarini yaratish katta ahamiyat kasb etadi.

Mehnat gigenasi- tibbiyot fanining bir qismi bo'lib, ish sharoitlarining inson sog'lig'iga va ish qobiliyatiga ta'sirini o'rganadi. Shuningdek, mehnat sharoitlarini sog'lomlashtirish hamda ishlab chiqarishni yuksaltirishga yo'naltirilgansanitariya- gigena, oldini olish va davolash tadbirlarini ishlab chiqadi.

Mehnat sharoitlari mehnat qilish jarayonini ya'ni bajarilayotgan ishlarning jadalligini ish davomida kishi gavdasining holati, asboblarning psixologik zo'riqish darajasi organizmdagi ba'zi organlar zo'riqishini belgilovchi kishi harakatining xarakteri va atrof-muhitning ahvoriga qarab aniqlanadi.

Mehnat sharoitlarini asosan to'rt guruh omillarga ajratish mumkin,

1. Atrof-muhitning sanitariya- gigena holati. Bularga havo harorati, atrof-muhitning tozaligi va hokazo.
2. Mehnat vositalari: ishlab chiqarishda foydalanilgan mashina mexanizmlar, asbob-uskunalar va moslamalar kiradi
3. Tashkiliy tadbirlar, ya'ni ish va dam olish rejimini to'g'ri tashkil etish, mehnat taqsimoti, mehnat intizomi kabilar kiradi.
4. Odamlarning o'zaro munosabatlari, ishchilarning ish joyi va mehnat darajalariga bo'lgan munosabatlari bilan bog'liq ijtimoiy omillarni o'z ichiga oladi.

Mehnatni to'g'ri tashkil etish kishi organizmiga ijobiy ta'sir etib, unda yengillik va kuch quvvatni oshiradi. Inson fiziologiyasini o'rganish esa normal ish rejimini tashkil qilishga mehnat qobiliyatini oshirishga va turli ishlarni bajarishga ishchi qanday holatda bo'lishi zarurligini aniqlashga yordam beradi.

Tikuvchilik korxonalarida texnika havfsizligini ta'minlash maqsadida o'tkaziladigan yo'riqnomalar haqida tushuncha

Uskuna va mexanizmlarning hamma xarakatlanuvchi qismlari: bir-biri tomon aylanadigan vallar, tishli g'ildiraklar ilashmasi; uskunalarning vertikal uzatmalari va qirquvchi qismlari; qaytma - ilgari xarakatlanuvchi pishang – ishlovchilarning sog'lig'i xamda xayoti uchun yashirin havf tug'diradi.

Uskunalardan foydalanish xavfsizligini oshirish va ishlab chiqarishda shikastlanishning oldini olish uchun xavfsizlikning maxsus texnik vositalari qo'llaniladi. Ularga quyidagilar kiradi: himoyalovchi va to'suvchi tuzilmalar, xavfsizlik masofalari va gabaritlari, havfsizlik signalizatsiyasi, yorug'lik signalizatsiyasi va havfsizlik belgilari, havfli mintaqalar, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish. [17]

Agar texnologik va umumfabrika uskunalarning barcha xarakatlanuvchi qismlari shikastlanish manbai xamda inson organizmi uchun havf manbai bo'lsa, ular to'siqqa ega bo'lishi kerak. Masalan: xamma xavfli doiralar vallarning chiqib turadigan uchlari, tishli shesternya va segmentlar, maxovikli g'ildiraklar, tasmali, tishli xamda ponasimon tasmali uzatmalar, ilashish muftlari, to'xtatish boltlari, shponkalar va texnologik xamda umumfabrika uskunalarning barcha xarakatlanuvchi qismlari to'sib qo'yilishi shart.

O'rnatiladigan to'siqlar foydalanishga qulay bo'lishi, aylanuvchi qismlar bilan qo'zg'almas detallar orasidagi tirqishlarni berkitib turishi xamda kiyimni, oyoq – qo'llarni va sochni tortib ketib, ishlovchilarni shikastlash extimolining oldini olish kerak. Ishlab chiqarish zaruriyati tufayli texnologik jarayonni ko'z bilan kuzatib turish va ayni paytda ishlovchilarning otilayotgan qirindilardan, abraziv toshlarning mayday bo'laklari xamda ishlab chiqarish chiqindilaridan ximoyalani uchun to'siqlar organik shisha stali va boshqa shaffof ashyolardan ekranlar yoki oynalar ko'rinishda tayyorlanadi.

To'suvchi tuzilmalar asosan ikki guruxga: muvaqqat va doimiy tuzilmalarga bolinadi.

Muvaqqat (ko'chma) tuzilmalar qurilish-montaj va tuzatish ishlarini bajarishda qo'llaniladi.

Doimiy (ko'chmas) to'siqlar texnologik va umumfabrika uskunalarning xavfli joylarni to'sib turish uchun xizmat qiladi.

Doimiy to'siqlarga sirkulyar, tebranma va tasmali arralar, abraziv doiralar, mashinalardagi mexanik uzatmalar va xar xil tuzilishdagi metal to'siqlar misol bo'la oladi.

Elektr qurilmalarning xamma tok o'tkazuvchi qismlari xam doimiy to'siqlar bilan ximoyalangan bo'lishi zarur. Konstruktiv ijrosiga k'ra doimiy to'siqlar uskunalarining ajralmas qismi kabi tayyorlanadi. Ularning tashqi sirti uskunaning rangida, ichki sirti esa to'siqni olib yoki ochib qo'yib ishlash xavfli ekanligidan ogoxlantiruvchi qizil rangga bo'yaladi. Xamma to'siqlarning tashqi sirti silliq bo'lishi va ularda jaroxatlanishga olib keluvchi o'tkir chiqiqlar bo'lmasligi kerak.

Ba'zi xollarda, to'siqni o'rnatmasdan turib uskunani ishga tushirish mumkin emasligi tufayli, to'siqlar uskunaning ishga tushirgichi bilan blokirovka qilinadi.

Doimiy to'siqlar qo'zg'almas va olinadigan bo'ladi. Olinadigan to'siqlar rostlash hamda moylash ishlarini bajarish, shuningdek, vaqti-vaqtida ko'zdan kechirish uchun uskunaning xarakatlanuvchi qismlariga qo'lni olib boorish zarur bo'lgan xollarda qo'llaniladi.

Ochilganda qo'l yoki kiyim uskunaning xarakatlanuvchi qismlariga tushib qolishi extimoli bo'lgan olinadigan, surilma va qaytarma to'siqlar ishga tushirish xamda to'xtatish mexanizmi bilan blokirovkalan bo'lishi lozim.

Qaytarma, olinadigan va surilma to'siqlar, o'lchamlari xamda shakli jihatidan qulay skoba va to'siqchilarga ega bo'ishi kerak. Uskunalaridagi xarakatlanuvchi qismlarning xalqlardan o'rnatilgan va yuqoriga ochiladigan

to'siqlari (qopqoqlar, olinadigan to'siqlar, g'illoflar va b.) ochilganda qimirlamaydigan bo'lishi zarur. To'siqning tuzilishiga nisbatan qo'llaniladigan majburiy talab shundan iboratki, uskunaga xizmat ko'rsatadigan kishi to'siqni ocha olmasligi va u bo'lmaganda texnologik jarayonni amalga oshirish mumkin bo'lmasligi kerak. Bir necha kishi xizmat ko'rsatadigan yoki ancha uzun bo'lgan mashinalar, apparatlar va boshqa texnologik yoxud umumfabrikalarning ishga tushirish tuzilmasi faqat bir joyda – boshqarish pultida, bu xar bir ish o'rniga va xar 4 m oraliqda o'rnatilishi kerak. Uskunalarining zararli gazlar, bug'lar va chang chiqadigan joylari yopiq bo'lishi va xavoning tozaligini taminash uchun maxalliy so'ruvchi tuzilmalar bilan jixozlanishi zarur. Texnologik va umumfabrika uskunalarining kuydirishi mumkin bo'lgan qaynoq sirtlari issiqlikni o'tkazmaydigan qilib ixtalanishi kerak. Ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish postlari va pultrlari doimiy ish o'rnidan ko'pi bilan 1,2 m narida bo'lishi lozim. Boshqarish tuzilmalari (tugmalar, pishangli va buralma dastaklar, teshiklar va xokazo), uskunalar xamda quvularning ochiq ish mexanizmlari va qizdirish elementlarini kamida 0,2 m masofada joylashtirish kerak.

Texnologik va umumfabrika uskunalari ishini blokirovkalashdan maqsad ulardan xavfsiz foydalanishni ta'minlashdan iborat.

Blokirovkalash tuzilmalari quyidagi maqsadlar uchun xizmat qiladi:

- texnologik jarayonni va umumfabrika uskunalarining notog'ri boshqarilishiga barxam berish uchun;
- xavf paydo bo'lganda ishlayotgan uskunani to'xtatish uchun;
- ayrim mexanizm va detallarning xavfli mintaqadan tashqarida xarakatlanishiga imkoniyat yaratish uchun.

Me'yordagi ish sharoitining buzilishi oqibatida mazkur qurilmaga xizmat ko'rsatadigan kishining sog'lig'i uchun xavf tug'ilishiga ayrim mexanizmlarning ishlamay qolishi sabab bo'ladi.

Blokirovkalash uchun ko'pincha relelardan foydalaniladi. Ular agregat yoki texnologik jarayonning ayrim parametrlari kattaligi yoki yo'nalishi o'zgarganini sezib, ijrochi tuzilmaga tegishli ta'sir ko'rsatadi, u esa elektr toki, suyuq yoki gazsimon muxit ta'sirida ishlab ketadi. Releni ishlash prinsipini u qabul qiladigan parametrlarning turi (kuch, yorug'lik, bosim, kuchlanish, namlik va xokazo) xamda yordamchi energiyaning (mexanik, elektr, gidravlik yoki pnevmatik) xili belgilaydi.

Lampalar yoki yarim o'tkazgichlar asosida yig'ilgan ko'paytirgichlardan iborat bo'lgan electron relelar keng qo'llaniladi.

Blokirovkalovchi tuzilma ximoya tuzilmasidan farq qilib, uning vazifasi xavfli mintaqaning to'sig'I olinganda yoki ochilganda uskunaning operativ zanjirini o'chirib va uzib qo'yishdan, ish boshlanishidan oldin uni yopishdan xamda uskunani yopilgan xolatda tutib turishdan iborat.

Saqlovchi tuzilmalar o'z-o'zidan ishlab uskunani to'xtatadi va bu bilan uning sinishi xamda ishdan chiqishining oldini oladi.

Saqlovchi tuzilmalar ishlab ketganidan keyin uskunaning ishlash qobilyatini tiklash usuliga qarab ular ikki guruxga ajratiladi:

- nazorat qilinayotgan parametr me'yoridagi qiymatga yetganidan so'ng uskunaning ishlash qobilyati o'z-o'zidan tiklanadigan tuzilmalar;
- saqlovchi tuzilmaning ishdan chiqqan detallari (eruvchan quymalari) qo'lda almashtirish yo'li bilan tiklanadigan tuzilmalar.

Portlashnioldini olish maqsadida, atmosfera bosimidan yuqori bosim ostida ishlaydigan apparatlar, balonlar, quvurlar va idishlar o'z-o'zidan (avtomatik) ishlab ketadigan saqlovchi klapanlar va saqlovchi plastinlar bilan jixozlanadi. Apparatda bosim ko'tarilganda saqlovchi klapanlar ochilib, ortiqcha bug' yoki gazni chiqarib yuboradi va apparatda ruxsat etilgan bosim yuzaga kelgandan keyin o'z-o'zidan yopiladi.

Elektr qurilmalarida tok kuchi oshib ketganida ularda o'ta yuklanish yoki qisqa tutashuv va yong'in sodir bo'lishi mumkin. Bu xolda eruvchan saqlagichlar yoki uzib qo'yuvchi avtomatlar o'rnatiladi. Blokirovka sistemalari va saqlovchi tuzilmalar tovush xamda yorug'lik signalizatsiyasi bilan birgallikda qo'llaniladi.

Ishchilarni xavf to'g'risida ogoxlantirish uchun xavfsizlik signalizatsiyasi xizmat qiladi. Shu maqsadda yorug'lik, rang va tovush signallari, xar xil shartli belgilardan xamda bosimni, xaroratni, suyuqlik satxini aniqlaydigan ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Baxtsiz hodisalarni tavg'tish qilish va yo'riqnomalar. Ishlab chiqish sexlarida sodir bo'ladigan jaroxatlarning qaysi turidan qat'iy nazar tavg'tish qilish majburdir, ya'ni baxtsiz hodisa sodir bo'lgan holat uni ko'rgan shaxs iloji boricha jabrlanuvchining o'zi ish ustasiga habar beradi. Ish ustasi o'z navbatida sex boshlig'iga xabar berib, jabrlanuvchiga yordam ko'rsatishi zarur. Jarohatning yengil, og'ir turlaridan qat'iy nazar korxonada oldindan tuzilgan buyruq asosida tavg'tish guruhi ish holatini o'zgartirmasdan 24 soat davomida tekshiruv o'tkazishi shart.

Tekshirish natijasiga ko'ra H – 1 ko'rinishdagi 4 nusxadan iborat dalolatnoma to'ldiriladi. Agar baxtsiz hodisa tufayli og'ir holat yuz bersa, u holat tekshiruv guruhiga korxonada joylashgan hududning prokuraturasi ham qo'shiladi va maxsus dalolatnoma to'ldiriladi.

O'tkazilgan tavg'tir natijalari uch kunga qoldirmasdan yakunlash zarur.

Dalolatnomaning bir nusxasi jabrlanuvchi yoki oila a'zolariga, bir nusxasi tibbiyot muassasiga, bir qismi prokuratura va arxivga topshiriladi. Ishchilarning jaroxatlarini kamaytirish borasida o'tkaziladigan profilaktik tavg'tirlar havfsiz yo'riqnomalardir. Yo'riqnomalar 4 xil bo'ladi.

- **Kirish yo'riqnomasi** – bu yo'riqnoma yangi ishga kiruvchiga va boshqa korxonadan kelib vaqtincha ishlovchilar uchun o'tkaziladi. Bu yo'riqnomada korxonadan maxsus jihozlangan xonada belgilangan oyning kuni belgilanib, korxonaning bosh muxandisi yoki mehnat muhofazasi muhandisi tomonidan o'tkazilib, ikki tomonlama qo'l qo'yish bilan yakunlanadi.
- **Dastlabki yo'riqnoma** – bu yo'riqnoma kirish yo'riqnomasidan olganlarga ish joyidan sex boshlig'I yoki ish ustasi tomonidan o'tkazilib ikki tomonlama qo'l qo'yish bilan yakunlanadi.

- **Davriy yo'riqnoma** – bu yo'riqnoma har kvartetda bir marotaba korxonada belgilangan kun ish stajidan qat'iy nazar barcha ishchi va xizmatchilarga o'tkaziladi
- **Navbatdan tashqari yo'riqnoma** – bu yo'riqnomani ish joyi o'zgarganda yoki baxtsiz hodisa ro'y berganda o'tkaziladi.

Bundan tashqari korxonaning ro'yhatidan o'tgan bir marotaba bajariladigan havfli ishlar uchun maxsus “dopsg” ruhsatnoma berilishi shart. Bu ruhsatnoma ishni bajarilish tartibi, vaqti, havflik darajasi, kim bajaradi, kim yordam beradi kabi masalalar ko'rsatilishi shart.

5. IQTISODIY QISM

BIZNES REJA BO'LIMLARINI HISOBLASH.

Biznes reja – bu loyihalashtirilayotgan korxonani hamma asosoy aspektlarini yoritib beruvchi hujjatdir, u quyidagi boliimlarni oz ichiga oladi:

- Qisqa xulosa- resume
- Biznesni umumiy tarifi
- Mahsulotlar va xizmatlar
- Marketing- reja
- Ishlab chiqarish rejasi
- Boshqarish va tashkil etish
- Korxonaning tashkiliy-huquqiy hakli
- Moliyaviy reja
- Qisqa xulosa- resume biznes rejaning hamma bo'limlari to'g'ri hisoblab chiqilgandan va tuzilgandan so'ng yoziladi.

Qisqa xulosani loyihalashtirilayotgan korxonani asosiy xususiyatlar togrisidagi malumotlarni, ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini, talab etiladigan ishilar soni, mehnatga haq tolash fondi, sotish hajmi va foyda korsatkichlari, zararsiz ishlab chiqarish hajmini va rentabillik, capital mablaglarning qoplash muddatini oz ichiga oladi. Biznesning umumiy tarifi mahsulotlar va xizmatlar bolimi bitiruv malaka ishini texnologik qismida beriladi. [18,19]

Mahsulot tannarxini hisoblash

“Ishlab chiqarishdagi harajatlar tarkibi va mahsulotni sotish haqidagi nizom” ga asosan barcha harajatlari mahsulot tannarxiga kiruvchi va mahsulot tannarxi tarkibiga kirmaydigan harajatlar guruhiga ajratiladi. Ishlab chiqarishdagi mahsulot tannarxi tarkibiga kirmaydigan harajatlar, “Davr xarajatlari ” nomi bilan yuritilib korxonada asosiy aoliyatidan olinadigan foyda miqdorida hisobga olinadi, yani foydaning soliq solingunga qadargi qismidan ajratiladi.

Yuqoridagi nizomga asosan mahsulotni ishlab chiqarish, tannarxiga kiruvchi harajatlar quyidagi moddalardan tashkil topadi.

- 1-Ishlab chiqarishdaagi moddiy harajatlar
- 2-Ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi xodimlarning ish haqi harajatlari
- 3-Yagona ijtimoiy tolov
- 4-Asosiy ishlab chiqarishdagi fondlar amortizatsiyasi
- 5-Boshqa ishlab chiqarishdagi harajatlar
- JAMI: mahsulot ishlab chiqarish tinnarxi

1-Davr harajatlari

1.Ishlab chiqarishdagi moddiy harajatlar quyidagilarni oz ichiga oladi:

- 1.1) Xom-ashyo va asosiy materiallarga ketgan harajatlar
 - 1.2) yordamchi materiallarga sarflangan xarajatlar
 - 1.3) texnologiya uchun talab etilgan bug va yoqilgi
 - 1.4) arzon va tez yoyiluvchi inventarlar bilan bogliq harajatlar
 - 1.5) Binoni isitish va saqlash xarajatlari
 - 1.6) ishlab chiqarish binosining joriy yil remonti uchun ketgan harajatlar
 - 1.7) elektroenergiyani barcha turlariga ketgan sarf-harajatlar
- 1.1 Xom ashyo va asosiy materiallarga ketgan xarajatlar. Ushbu xarajat lohiyalashtirilayotgan modelning pasporti boyicha aniqlanadi. Bunda mahsulotni tayyorlash uchun kerak bolgan meteriallar turlari, ularning saqlash normasi va olchov birligidagi narxi asos qilib olinadi, hisoblab quyidagi jadvalda keltiriladi

Xom-ashyo va asosiy materiallarga ketadigan materialllarni hisoblash

Jadval -1.

Asosiy materiallar nomi	O'lchov birligi	Sarf normasi	O'lchov birligi a hosi	Bir dona mahsulot uchun qiymati	Yillik mahsulot Uchun qiymati,m.s
1	2	3	4	5	6
Avra gazlama	M	1.8	35000	63000	2213820
Astar gazlama	M	1.4	12000	16800	590352
Dublirin	M	0,5	6000	3000	105420
Ip	Galtak	0.2	5000	1000	35140
Tugma	Dona	6	2000	12000	421680
Firma belgisi	Dona	1	100	100	3514
Birka	Dona	1	50	50	1757
Belbog' taqilmasi	Dona	1	5000	5000	175700

Jami	M_x			100950	3547383
Sotilgan mahsulotlar qiymati	$C_k=$	$((M^{as}+M^{av})*D)/100$ $D=5\%$		3990	140208.6
Transport tayyorlov harajatlari	$T_{tx}=$	$M_x*A/100$ $A=2\%$		2019	70947.66
Hammasi	X_{11}	$M_x - C_k + T_{tx}$		98979	3478122.06

1- modda. Ishlab chiqarishdagi moddiy harajatlarni jamlovchi jadval

Jadval -2.

Ishlab chiqarishdagi material harajatlar tarkibi	Hisoblash formulasi	Qiymati ming so'm	%da
Bevosita material harajatlar:			
1.Xom-ashyo va materiallar	X_{11}	205400.5	74.06
2.texnologiya uchun talab etilgan bugdoy yoqilgi	$X_{12}=B_e*B_{1max}$	31626	11.4
3.Mahsulotni orab joylashtirish xarajatlari	$X_{13}=X_{11}*(1-2\%)$	2054	0.74
Bilvosita material harajatlari			
4.Arzon baho invertarning yemirilishi	$X_{14}=KM_{tex}*(1-3\%)$	794	0.28
5.Binolarni istish va saqlash bilan bogliq materiallar	$X_{15}=S_c*B_{1kvms}$	9720	3.5
6.Ishlab chiqarish binosini va jihozlarni saqlash joriy remont qilish uchun kereak bolgan materiallar	$X_{16}=S_c*B_{1kvmtam}$	11340	4.1
7.Umumiy elektrenergiya harajatlari	$X_{dv}+X_{yor}+X_{nav}+X_{ixn}$	16422.46	5.92
Jami	$X_1=X_{11}+X_{12}+X_{13}+X_{14}+X_{15}+X_{16}+X_{17}$	277356.9	100%

Bu jadvalni to'latish uchun quyidagi hisoblar amalga oshiriladi:

Texnologik jihozlar uchun kapital manbalar quyidagi jadval asosida hisoblanadi.

Texnologik jihozlarga texnologik kapital mablag' qiymatini hisoblash

Jadval-3.

T/r	Jihzlarning nomi	Jihzlarning soni	Bir dona jihoz qiymati m.s	Jami jihoz qiymati m.s	Elektr motorlar quvvati	O'rnatilgan quvvatlar yig'indisi	Shartli remont birligi	Jami shartli remont birligi
1.	Typical GC6850HZ	11	1950000	21450	0,4	4.4	3	33
2.	DP 2100 S2 Juki (M/M)	2	2200000	4400	0,4	0.8	2.5	5
3.	EC-289 Rotondi Dazmol	8	900000	7200	1.25	10	2.5	20
4.	Stol	2	600000	1200	-	-	-	-
5.	Juki LBH-770 Y/A	1	2750000	2750	0.8	0.8	3	3
6.	Jack JK-T1377 Y/A	1	2700000	2700	0.8	0.8	3	3
Jami	X KMtex	X	39700		X	16.8		64

Barcha turdagi elektrenergiya xarajatlari quyidagi tartibda hisoblanadi
a) dvigetellar uchun talab etilgan elektrenergiya harajatlari X_{dv} quyidagicha aniqlanadi:

$$X_{dv} = \sum_{m=1}^n \mathcal{E}^m * H_{\mathcal{E}H} = 28112 * 300 / 1000 = 8433.6 \text{ m.c.}$$

Bunda \mathcal{E}^m – dvigatel elektrenergiyasiga yillik talab, kVt – soatda; $H_{\mathcal{E}H}$ – bir kVt – soat dvigatel elektroenergiyaning narxi som

$$\sum_{m=1}^n EDK_{dv} * D_{ik} * T_{em} * p_{ss,soni}$$

$$/K_i = 16.8 * 251 * 8 * 1 / 1.2 = 28112 \text{ kvt/soat}$$

Bunda : $\sum_{m=1}^n EDK_{dv}$ – o'rnatilgan jihozlar quvvati, 30-jadvaldan olindi

D_{ik} – korxonani yil mobaynidagi ish kunlari soni;

K_i – energiyadan foydalanish keffitsent, jihozlar uchun 1,1-1,3

b) yoritish uchun talab etilgan elektroenergiyani hisoblash.

Ishlab chiqarish yoritish uchun talab etiladigan elektroenergiyani hisoblash

$$X_{EL/EN.i/ch} = (S_{i/ch} * N_h * T_{yor} * N_{1kvt/s}) / K_s \quad K_c = 0.95 \quad T_{yor} = 2008 \quad N_h = 0,02 \text{ kvt.soat}$$

$$= (324 * 0.023 * 2008 * 250) / 0.95 = 3937.8 \text{ m.s}$$

Mamuriy binoni yoritish uchun talab etiladigan elektroenergiyani hisoblash

$$X_{EL/EN.i/ch} = (S_{i/ch} * N_h * T_{yor} * N_{1kvt/s}) / K_s =$$

$$= (64.8 * 0.015 * 2008 * 250) / 0.95 = 513.6 \text{ m.s}$$

$$K_c = 0.95 \quad T_{yor} = 2008 \quad N_h = 0,015 \text{ kvt. soat}$$

Mamuriy binolari maydon ishlab chiqarish binolari maydonidan 18-20% olinadi.

$$X_{yor} = X_{el.en.i/ch} + X_{el.en.m/b} = 3937.8 + 513.6 = 4451.4 \text{ m.s}$$

V) navbatchi yoritilganlik yoritish uchun talab etilgan elektroenergiyaning qiymatidan 10% olinadi: 445.14 m.s

G)isitish, namlikni saqlash va havo yuritish uchun talab etilgan elektroenergiya miqdori dvigatel elektroenergiyasidan 20% olinadi.

$$X_{inx}=E_m*20\%*H_{1kvt/soat}=28112*0.2*250=1405.6 \text{ m.s}$$

$$P_H=X_{dv}*20\%=8433.6*0.2=1686.72$$

2-modda. Ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi xodimlar ish haqi xarajatlari.

Ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi ishchilar ish haqi (asosiy va qo'shimcha ish haqi).

Jadval-4

Ish haqi fondi tarkibi	Asosiy ish haqi	Qo'shimcha ish haqi	Jami ish haqi
Ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi ishchilarning ish haqi	168292.4	145013.8	313306.2
Yordamchi ishchilarning ish haqi	25267	17282.6	42549.63
Ishlab chiqarish binosini ta'mirlovchi ishchilarning ish haqi	4613.76	3155.8	7769.57
Rahbarlar, mutaxassislar, xizmatchilarning ish haqi	63854.12	34618.88	98473
Jami	262027.28	200071.1	462098.4

Ishchilar sonini hisoblash .

Umumiy ishlovchi ishchilarning umumiy sonini aniqlaymiz.

$$Is.um=Is.ishb+Is.Vaqt=20+2=22 \text{ ta}$$

$$Is.Vaqt=(Is.ishb(8-10))/100=20*8/100=1,6=2\text{ta}$$

Ro'yxatdagi ishchilar soni rejalashtiriladi:

$$S= Is.um*100/(100-N)=22*100/(100-5)=23 \text{ ta}$$

Bunda: S-ro'yxatdagi ishchilar soni;

N-ishga chiqmaslik foizi, 5-7 foiz olinadi

-rezerv ishchilar sonini hisoblash

$$N_{rez.}= S-Is.um=23-22=1$$

Yordamchi ishchilar sonini hisoblash

Mexanik sozlovchilar sonini aniqlaymiz.

$$N_{mex.soz}=\sum SHRB/Nx.k.n=64/80=0.8=1 \text{ kishi}$$

Bunda : Nx.k.n- bitta mexanik sozlovchining xizmat qilish normasi

$$Nx.k.n=80/100 \text{ shartli remont birligi}$$

Elektriklar sonini quyidagi formula yordmida aniqlanadi:

$$N_{el}=EDK/Nx.k.n=16.8/50=1\text{ta}$$

$$Nx.k.n=50/80 \text{ shartli elektrodvigatel quvvati}$$

Sex maydoni va farroshlar uchun belgilangan smena boyicha aniqlanadi:

$N_{far} = S_{may} / N_{x.k.n} = 324 / 450 = 0.5$
 $N_{x.k.n} = 450 / 550$ kvm bitta farrosh uchun
 Kontrollerlar soni mahsulot turiga bogliq holda aniqlanadi:
 $N_{kontr} = V_{sm} / N_{x.k.n} = 140 / 450 = 0.31$ ta

$N_{yerd} = N_{mex.soz} + N_{el} + N_{far} + N_{naz} = 3$ ta

Mahsulot hajmini hisoblash

$$V_y = V_{sm} * D_{i.k} * h_{sm} = 171 * 241 * 1 = 41211 \text{ dona}$$

Asosiy ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi ishchilarning ish haqi fondini hisoblash

Jadval 5

Ish haqi fondini tarkibi	Hisoblash formulalari	Qiymat, m.s
1. Ishbay ishchilarini ish haqi	$IX_{fishb.} = \sum \rho * V_y = 4360 * 35.14 =$ $\sum \rho = 3824.34 * 1.14 = 4360$	153210.4
Vaqtbay ishchilarning ish haqi fondini	$IXF_v = S_v^0 * TK_v * I_{sv} * FIVF$	15082
To'g'ri ish haqi fondi	$IXF_t = IX_{fishb.} + IXF_{vaqt}$	168292.4
Soatlik ish haqi fondi tolanadigan qoshimchalar: Mukofot	$M = M_{ishb} + M_{vaqt} =$	109390
Rezerv ishchilariga tolanadigan qoshimcha;	$K_{rez} = 0.15 * S_{ishb} * TK_{rez} * T_{sm} * D_{ik} * I_{rez}$	1152
Ozod bo'lmagan brigadirlarga tolanadigan qoshimcha	$K_{br} = 0.1 * S_{ishb} * TK_{br} * T_{sm} * D_{ik} * I_{s.br}$	767.92
Boshqa qo'shimchalar	$K_{bosh} = 0,01 * IXF_t$	1682.924
Soatlik ish haqi fondi	$IXF_s = IXF_t + M + K_{kech.} + K_{br} + K_{rez.} + K_{b.k}$	281285
O'smirlarning to'liq ishlanmagan ish kuniga tolanadigan qoshimcha	$K^{usm} = (0,4 - 0,8) * IXF_s / 100$	2250
Kunlik ish haqi fondi	$IXF^k = IXF_s + K^{usm}$	283535
Navbatdagi va qoshimcha mehnat taitili uchun	$K^{m.t.} = IXF^k * 10 / 100$	28353.5

qoshiladigan qoshimcha		
O'quv ta'tili uchun to'lanadigan qo'shimchalar	$K^{o.t.} = IXF^k * 0.3 / 100$	850.06
Davlat va jamoat ishlarini bajargani uchun to'lanadigan qo'shimcha	$K^{d.i.} = IXF^k * 0.2 / 100$	567.07
Oylik ish haqi fondi	$IXF^{oy} = IXF^k + K^{m.t.} + K^{u.t.} + K^{d.m.}$	313306.2
Mahsulot ishlab chiqargani uchun tolanadigan qoshimcha foizi	$K^1 = (IXF^k - IXGt) / IXFt * 100$	68.4
Ish haqiga tolanadigan qoshimchalarni foizi	$K^2 = (IXF_{oy} - IXFs) / IXFs * 100$	11.38
Yordamchi ish haqi fondini	$IXF_{yord} = C^0_{yord} * N_{yord} * FIBF = 3 * 4194.41 * 2008$	25267
Ishlab chiqarish binosini tamirlovchi ishchilar ish haqi	$IXF_{tam} = (KM_{b.in.} * 4\%) + ((KM_{b.in.} * 4\%) / 100)$	4613.76
Bir ishchining ortacha oylik ish haqi	$UIX_{k/oy} = IXF_{oy} / (C * 12) =$	1135.17

4. Rahbarlar, mutaxassislar, xizmatchilarning ish haqi fondi va ular mehnatini moddiy ragbatlantirish.

Rahbarlar, mutaxassislar, xizmatchilar ish haqi fondini hisoblash

Jadval 6.

T/n	Lavozimlar	Soni	Oylik maoshi,	Yillik IXF, m.s	Qoshimchalar		IXF qoshimchalar bilan, m.s
					Mukofot qiymati		
					%	M.som	
1	2	3	4	5	8	9	10
1	Sex boshligi	1	1104261	13251.13	70	9275.79	22526.92

2	Texnolog	1	1029091	12349.09	60	7409.45	19758.54
3	Katta usta	1	955570	11466.84	60	6880.1	18346.94
4	Usta	1	882255	10587.06	50	5293.54	15880.6
5	Xisobchi	1	750000	9000	40	3600	12600
6	Farrosh	1	600000	7200	30	2160	9360
	Jami:	6		63854.12		34618.88	98473

3-modda. Yagona ijtimoiy to'lov

$$X_{yit} = \sum IXF_j * X\% / 100 = 462098.4 * 25 / 100 = 115526 \text{ m.s}$$

4-modda. Ishlab chiqarishdagi asosiy fondlar amortizatsiyasi.

Bu bo'limda quyidagilar hisoblanadi:

1. Texnologik jihozlar amortizatsiyasi.

$$A_{\text{tex}} = KM_{\text{tex}} * 20\% = 39700 * 0.2 = 7940 \text{ m.s.}$$

2. Bino va inshootlar amortizatsiyasi.

$$A_{\text{b.in}} = KM_{\text{b.in}} * 5\% = 115344 * 0.05 = 5767.2 \text{ m.s.}$$

3. Ishlab chiqarish bilan bogliq transport vositalari amortizatsiyasi.

$$A_{\text{b.vos}} = A_{\text{tex}} * 3\% = 7940 * 0.03 = 238.2 \text{ m.s.}$$

Jami amortizatsiya

$$A_j = A_{\text{tex}} + A_{\text{b.in}} + A_{\text{b.vos}} = 7940 + 5767.2 + 238.2 = 13945.4 \text{ m.s.}$$

5-modda. Boshqa ishlab chiqarish bilan bogliq xarajatlar

Bu xarajatlar tarkibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Asosiy ishlab chiqarish fondlarini ishchi holatda salash xarajatlari, jihozlarni saqlash xarajatlari, joriy, orta va kapital taminlash.

$$X_{\text{tam}} = IXF_{\text{yord}} / 60 * 100 = 25267 / 60 * 100 = 42111.7 \text{ m.s.}$$

Atrof-muhitni saqlash bilan bogliq xarajatlar "Davr xarajatlari" dan 10 foiz miqdorda olinadi.

$$A_{\text{AT}} = D_x * 10\% = 73935.7 * 0.1 = 7393.57 \text{ m.s.}$$

Texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza etish xarajatlari, royhatdagi har bir ishchi xisobiga belgilangan normative asosida aniqlanadi.

$$X_{\text{tex}} = C * H_{\text{ishchi}} = 23 * 18 = 414 \text{ m.s.}$$

Ishlab chiqarish sexlaridagi ilmiy izlanish, loyihalash va ratsionalizatsiya xarajatlari texnologik jihozlar qiymatidan 10% olinadi.

$$X_{\text{rat}} = KM_{\text{tex}} * 10\% = 39700 * 10\% = 3970 \text{ m.s.}$$

“ Boshqa ishlab chiqarish bilan bogliq xarajatlar” ni jamini hisoblash.

$$X_{\text{bosh}} = X_{\text{tam}} + X_{\text{t.x}} + X_{\text{at.mux}} + X_{\text{rat}} = 42111.7 + 414 + 3970 + 7393.57 = 53889.27 \text{ m.s.}$$

Yillik ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini tannarxi. [20,21]

Jadval 7

T/n	Xarajat moddalari	Jami tannarx ming som	Bir dona mahsulot tannarxi, so'm	Jamiga nisbatan foizlarda
1	Ishlab chiqarishdagi moddiy xarajatlar	3478122.06	98979	84.34
2	Ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi asosiy ishchilar ish haqi	462098.4	13150.2	11.2
3	Yagona ijtimoiy tolov	115526	3287.6	2.8
4	Asosiy ishlab chiqarish fondlarining amortizatsiyasi	13945.5	396.85	0.34
5	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	53889.27	1533.6	1.31
	Jami ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi	4123581.13	117347.25	100%

6-modda. Davr yoki operatsion xarajatlar

“Davr xarajatlari” quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\text{Davr xarajatlari} = (\text{umumfabrika personal ish haqi} / 25) * 100 = 462098.4 * 0.04 / 25 * 100 = 73935.7 \text{ m.s.}$$

Davr xarajatlarida boshqa xarajatlar quyidagicha tasvirlanadi

Jadval 8.

T/n	Xarajat moddalari	% da	Qiymati
1	Umumfabrika personalini saqlash va ish haqi xarajatlari	25	18483.9
2	Devonxona va idora xarajatlari	6	4436.14
3	Xizmat safari xarajatlari	7	5175.49
4	Umumfabrikani boshqaruv binosini saqlash xarajatlari	15	11090.35

5	Umumfabrika laboratoriyalarini saqlash xarajatlari	12	8872.3
6	Korxonani rivojlantirish va boshqarish bilan bogliq ilmiy izlanish va tajriba-konstruktorlik xarajatlari	8	5915
7	Yangi turdagi mahsulotlarni va yangi texnologiyani ozlashtirish va tayyorlash xarajatlari	9	6654.213
8	Marketing kuzatuvlari va mahsulotni sotish bilan bogliq xarajatlar	8	5915
9	Boshqa umumxalq xarajatlari	10	7393.57
	Jami	100	73935.7
10	Mulk soligi	$3,5\% * AICHF$	5426.54
11	Yer soligi	$(S_{i/ch} + S_{m.b}) * B_{1kv}$	13413.6
12	Suvga tolovi	$V_y * B_{1dona}$	12650.4
	Hammasi		105426.24

Loyihalashtirilayotgan mahsulotni reja konkulyatsiyasini hisoblash. [22]

Jadval 9.

Xarajatlar tarkibi	Yillik mahsulot hajmi uchun m.s.	Bir dona mahsulot uchun som
1.Moddiy xarajatlar	3478122.06	98979
2.Ish haqi xarajatlari	462098.4	13150.2
3.Yagona ijtimoiy tolov	115526	3287.6
4.Asosiy fondlar amortizatsiyasi	13945.5	396.85
5.Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	53889.27	1533.6
Jami mahsulot tannarxi	4123581.13	117347.25
Mahsulot rentabelligi	21	21
Foyda	865952.037	24642.9
Mahsulotni uljurji narxi	4989533.17	141990.15
Qoshilgan qiymat soligi-QQS	831588.862	23665.025
Shartnomaga asoslangan uljurji narx	5821122.03	165655.175
Savdo chegirmasi 10%	582112.203	16565.52
Shartnomaga asoslangan chakana narx	6403234.23	182220.7

Loyihalashtirilayotgan potokning texnik-iqtisodiy korsatkichlari

Jadval 10

T/n	Ko'rsatkichlar	Olchov birligi	Qiymati
1	2	3	4
1	Smenada ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	dona	140
2	Ishchilar soni	kishi	20
3	Mahsulotning mehnat sarfi	soat	1.14
4	Ishchining mehnat unumdorligi	dona/k	7
5	Mahsulotning ishlov berish qiymati	so'm	4360
6	Bir ishchining ortacha oylik ish haqi	so'm	1135170
7	Mahsulot tannarxi	so'm	117347.25
8	Mahsulot rentabelligi	%	21
9	Mahsulot ulgurji narxi	so'm	141990.15
10	Qo'shilgan qiymat soligi	so'm	23665.025
11	Shartnomaga asoslangan ulgurji narx	so'm	165655.175
12	Bir dona mahsulotga togri keluvchi davr xarajatlari	so'm	3000.17
13	Foyda	so'm	24642.9

XULOSA

TBKT kafedrası tomonidan “Ayollar trenchini ishlab chiqaradigan texnologik jarayonni loyihalash” mavzusi berilgan. Bu mavzu bo'yicha diplom loyihasida zamonaviy moda yo'nalishi va bozor talabiga javob beradigan 3 ta model tanlandi. Tanlangan model iste'molchi talablariga qanchalik mos kelishi o'rganib chiqildi. O'zbekiston sharoitini o'rganib chiqilgan holda, buyum uchun material tanlandi va material xususiyatlari o'rganib chiqildi. “ Myuller va o'g'li” uslubida yaratilgan metodika bo'yicha konstruksiya qurish usuli tanlandi. Ishchi xujjatlar tuzilib yangi model andozalari tayyorlandi, andozalarda tanda ipi, kertiklar joylanishi, og'ishlar, gobarit o'lchamlar va chok haqlari qo'yib chiqildi. Gazlama sarflash normasi hisoblandi. Diplom loyihasida ayollar trenchini texnologik jarayoni loyihalandi. Modelni tikish uchun buyum material xususiyatlarini hisobga olgan holda, zamonaviy asbob - uskunalar va texnologik mashinalar tavsiya etildi. Ishlov berish usullari qirqimlarda ko'rsatildi. Asbob-uskunaga asoslanib, buyumni tikish texnologik tartibi tuzildi, ishlab chiqarish oqimining texnologik sxemasi tuzildi. Mehnat predmetlarini ish joyidan keyingi ish joyiga uzatish uchun uzatkichsiz osma transportyor tavsiya etildi. Ishni bajarish natijasida yuqori texnika – iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishildi. Korxonada loyihalashtirilayotgan potokda rentabellik, foyda va tannarx ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent, «O‘zbekiston», 2017 yil, 48 bet.

2 .2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “ Harakatlar strategiyasi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

3.Kamilova X.X. Xamrayeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash». Darslik. – T.: «Cho‘lpon », 2011 y. – 400 b

4. X.X.Комилова, Н.К.Хамраева. Тикув буюмларини конструкциялаш. Дарслик. – “Молия”, 2003 й. – 350 б.

5. Янчевская Е.А. Аёллар уст кийимини конструкциялаш. Т.: «Ўқитувчи» 1998 йил. – 320 б

6. «Мюллер и сын» методикаси. Журнал “Ателье” -2002-2006 й.

7. “ЕМКО СЭВ”2,3,5,6- томлар

8.. ГОСТ 17522-72 Типовые фигуры женщин. Размерные признаки для проектирования одежды

9. ГОСТ 17521-72 Типовые фигуры мужчин.. Размерные признаки для проектирования одежды

10.Sh.G. Madjidova, M.K. Rasulova, Texnologik jarayonlarni loyihalash. Дарслик.-Т., ТТҲЕСИ,2011.-177б.

11.Серова Т.М., Афанасьева А.И., Илларионова Т.И., Дель Р.А. Современные формы и методы проектирования швейного производства: Учебное пособие.-М.; МГУДТ,2004.-283с.

12.Самарходжаев Х.Х. Тикувкорхоналари ускуналари: Ўқувқўлланма.- Т.; Ўзбекистон, 2001.-128б.

13.П. П. Кокеткин Одежда: технология-техника, процессы -качество Справочник.- МГУДТ, 2001.-577с.

14. А. Ortiqov “ Sanoat iqtisodi”- Т. :O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti-2004

15. E.X Mahmudov, I.Y. Isoqov, R.D.Najmiddinov “Biznes rejalashtirish” ma’ruzalar matni. TDIU, 2005.

16. A.E.Parmonov, A. Egamberdiyev, G’.Dadayev, M.Qodirov “ Hayot faoliyat xavfsizligi” ma’ruzalar matni. Toshkent. 2007-y. 196-b

17. O‘lmasov A, A. Qudratov “Mehnatni muhofaza qilish” . Т. “ Mehnat” nashriyoti 2001-y

Internet saytlar

1.<http://www.ziyonet.uz> -Ta’limportali.

2.<http://titli.uz> – Toshkent to‘qimachilikvayengilsanoat institutisayti.

3.lex.uz -O‘zbekiston Respublikasi qonunhujjatlarima’lumotlarimilliy bazasi.